

LINGVOPOETIKA VA UNING YO‘NALISHLARI

Abdurahimova Dilnavoz

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Abdurahimova Dilafruz

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvopoetika va uning yo‘nalishlari, uning badiiy asar matnida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik morfemika, poetik semantika, poetik sintaksis.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtai nazaridan kuzatib, o‘rganib borish, bu yo‘nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Lingvopoetika-badiiy asarda qo‘llangan lingvistik birliklarning badiiy-estetik funksiyalarini o‘rganadi. Badiiy nutq keng tushuncha bo‘lib badiiy asar tili uning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Shu sababdan ham lingvopoetika quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

- a) poetik fonetika-badiiylikni ta’minlovchi unsurlar: tovush o‘zgarishlari, urg‘u;
- b) poetik leksikologiya-biror asar tilida omonim, sinonim, iboralar yoki chegaralangan leksika, o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlari;

d) poetik morfemika-morfologiya va so‘z yasalishini ham o‘z ichiga oladi. Asar matnida qo‘llangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan olib boriladi.

e) poetik semantika-ushbu tahlilda so‘zlarning ma’no qirralari, uslubning o‘ziga xosligini ta’minlovchi vositalar (sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a) asosiy o‘rin egallaydi.
f) poetik sintaksis-gap qurilish tadqiqi. Gap bo‘laklarining tartibi hamda matnda lafziy va ma’naviy san’atlarning qo‘llanilishi.

Shuningdek, M.Yo‘ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatadi:

- 1) shakl va mazmun birligi asosidagi yondashuv;
- 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish;
- 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida yondashuv;
- 4) badiiy matnga badiiy estetik yaxlitlik sifatida yondashuv;
- 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash;
- 6) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Agar ma’lum bir badiiy matn yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida tahlil etilsa, uning ma’no-mazmuni to‘laqonli yoritib beriladi. Lingvopoetika tahlil faqatgina tilshunoslikning bir sathi bilan emas, balki barcha sathlari bilan aloqador. Badiiy matn qaysi sathlar orqali tahlil qilinsa, lingvopoetika ham shunga murojaat qiladi. Badiiy asar tili murakkab va o‘ziga xos hodisadir. Uni stilistik aspektida o‘rganishda lingvopoetik tahlil ancha samarali yo‘l hisoblanadi. Badiiy matnnning lingvopoetik tahlilida shakl va mazmun birlik yetakchi tamoyil hisoblanadi. Shundan kelib chiqib badiiy matnda shakl birlamchi, mazmun ikkilamchi deyish mumkin emas. Ularning orasida dialektik munosabatning namoyon bo‘lishigina turlicha xolos. Shuningdek, lingvopoetik tahlilning to‘liqligiga ko‘maklashuvchi badiiy matnnning yana bir jihatni zamonlar peripetiysi, almashinuvidir. Muayyan badiiy asar voqealar rivojida zamonlar ketma-ketlikda emas, balki bir hozirgi zamon, bir o‘tgan zamon ba’zan esa kelasi zamon voqealarini ham tasvirlanishi mumkin. Shuning uchun ham badiiy

matndagi prospeksiya va retrospeksiyalar alohida ahamiyatga ega. Mana shunday umumiylar tamoyillar asosida lingvopoetik tahlil bajarilsa, estetik butunlik bo‘lmish badiiy matnning mohiyati aniq, ravshan ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev.M.Badiiy matn lingvopoetikasi.Toshkent//''Fan''nashriyoti.2008.
2. G‘ulomov A.Badiiy adabiyotning tili haqida//Adabiyot va san’at.1941.
3. Abdurahmonov G‘.Adabiy asar tilini o‘rganish haqida//O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi masalalari.Toshkent.1966.